

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI.....	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxohongir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

REQUIREMENTS FOR CANDIDATES FOR ADMISSION TO THE PROSECUTOR'S OFFICE, PROSPECTS FOR IMPROVING ACTIVITIES IN RELATION TO RECRUITMENT AND WORKING WITH YOUNG SPECIALISTS

Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'glu

Master's student at the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article provides a scientific analysis of the role of the Prosecutor's Office in building a legal democratic state in the Republic of Uzbekistan, focusing on the legal foundations and prospects for improving recruitment procedures and work with young specialists. The study examines current legislation, departmental regulations, law enforcement practice, stages of competitive selection, requirements for candidates, and issues of openness and transparency. Based on international standards and foreign experience, proposals are made to strengthen legislative regulation of recruitment procedures and to reduce corruption risks within prosecutorial bodies.

Keywords: Prosecutor's Office, recruitment, candidate requirements, young specialists, transparency, openness, corruption prevention.

PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
magistraturasi tinglovchisi

E-mail: ilhomjonalijanov2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat barpo etish jarayonida prokuratura organlarining o'rni va ahamiyati, xususan, prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish hamda yosh mutaxassislar bilan ishlash faoliyatining huquqiy asoslari va takomillashtirish istiqbollari ilmiy tahlil qilingan. Amaldagi qonunchilik, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo'llash amaliyoti asosida xizmatga qabul qilish bosqichlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar, ochiqlik va shaffoflik masalalari yoritilgan. Xalqaro standartlar va xorijiy tajriba tahlili asosida prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish jarayonini qonun darajasida tartibga solish, ochiqlikni ta'minlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga doir takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: prokuratura organlari, xizmatga qabul qilish, nomzodga qo'yiladigan talablar, yosh mutaxassislar, ochiqlik, shaffoflik, korrupsiyaning oldini olish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N35>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik davlat barpo qilishni maqsad qilib qo'ygan ekan, huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri qonunlarga rioya qilish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash aniq tartiblari yo'lga qo'yilganligi hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov [17] ta'biri bilan aytganda: "Qonuniylik va huquq-tartibot

tantana qilmasa, shaxsning huquq va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va mas'uliyat ustuvor bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi". Mana shunday ulug'vor vazifalarni bajarishda prokuratura organlari davlat hokimiyati tizimida muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi Bosh prokurorga bo'ysunuvchi va davlat nomidan qonunlar ijrosi, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqni muhofaza qilish organlarining mazkur boradagi faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlovchi yagona markazlashtirilgan tizim hisoblanadi.

Metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

normativ-huquqiy tahlil – Konstitutsiya, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun, Prezident qarorlari va idoraviy hujjatlar tahlil qilindi;

tizimli yondashuv – xizmatga qabul qilish va kadrlar bilan ishlash jarayoni yaxlit tizim sifatida o'rganildi;

qiyosiy-huquqiy metod – xalqaro standartlar va xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi;

mantiqiy-huquqiy tahlil – mavjud muammolar asosida normativ takliflar ishlab chiqildi.

Natijalar va muhokama. Tahlil natijalariga ko'ra, prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi va nomzodlar hujjatlarni dastlabki o'rganish, tibbiy ko'rik, maxsus tekshiruv, psixodiagnostika, test va suhbat bosqichlaridan o'tkaziladi. Nomzodlarning siyosiy neytralligi, sudlanmaganligi va kasbiy yaroqliligi asosiy talablar sifatida belgilanadi.

Shu bilan birga, xizmatga qabul qilish tartibining asosiy qismi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinayotgani, ularning to'liq ochiq emasligi fuqarolar orasida shaffoflikka nisbatan salbiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo'layotgani aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat hisoblanadi. [6] Mazkur vazifalar nazoratning barcha sohalarini butunlay hamda alohida yo'nalishlari bo'yicha prokurorlik faoliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Prokuratura organlari oldida turgan vazifalarning huquqiy manbalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, [5] O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi [6] qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topgan bo'lib, mazkur normalarda prokuratura organlariga nomzodlarni xizmatga qabul qilish tartiblari va nomzodlarga qo'yilgan talablar o'z aksini topgan.

Xususan, Bosh prokurorning "Prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish, yosh mutaxassislar bilan ishlash hamda xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etishga doir faoliyatni takomillashtirish haqida"gi buyrug'iga asosan, tanlov nomzodlarni prokuratura organlari va muassasalariga xizmatga qabul qilish uchun qo'yilgan talablarga mos kelishini aniqlashga qaratilgan tadbirlar majmui hisoblanadi. Shuningdek, Buyruqda nomzod tushunchasiga ham ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra nomzod prokuratura organlari va muassasalariga xizmatga qabul qilish uchun ariza bilan murojaat qilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Bugungi kunda prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Prokuratura organlari to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Mamlakatimizda qonun ustuvorligi va prokuratura organlarining aholi bilan yanada yaqin hamkorligini ta’minlashda xodimlarning ma’naviy intellektual salohiyatini yuksaltirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-170-sonli Qarori, Bosh prokurorning “Prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish, yosh mutaxassislar bilan ishlash hamda xodimlarni attestatsiyadan o’tkazishni tashkil etishga doir faoliyatni takomillashtirish haqida”gi buyrug’i hamda “O’zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari va muassasalarida xizmatni o’tash to’g’risida”gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi. Xususan, prokuratura organlariga xizmatga qabul qilishda nomzodlarning mazkur Nizomda belgilangan talablarga muvofiqligini o’rganish maqsadida tekshirish hamda maxsus komissiya tomonidan bilim saviyasi, zarur kasb malakasi va ishchanlik qobiliyatini aniqlashga qaratilgan majburiy suhbat o’tkaziladi, shuningdek prokuratura organlariga xizmatga qabul qilishda zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog’lig’i imkon berishini aniqlash maqsadida nomzodlar majburiy tartibda tibbiy ko’rikdan o’tkaziladi.

Bundan tashqari, prokuratura organlariga xizmatga qabul qilinganda prokuratura organlari xodimlari o’z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga a’zolikni to’xtatib turadilar.

Sudlangan yoki nojo’ya xatti-harakatlarni sodir etganligi uchun huquqni muhofaza qiluvchi, sud yoki boshqa davlat organlaridan hamda boshqa tashkilotlardan bo’shatilgan shaxslar prokuratura organlariga xizmatga qabul qilinmaydi. Prokuratura organlarida o’zaro yaqin qarindoshlik yoki quda-andachilikda bo’lgan prokuratura organlari xodimlarining ya’ni ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o’g’il va qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va bolalari basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo’ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bo’lsa, birgalikda xizmat qilishlari taqiqlanadi. Shu bilan birga, prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish O’zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog’iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning vakolatlari doirasida chiqargan buyruqlari bilan rasmiylashtiriladi. Yakunda esa xizmatga qabul qilish to’g’risidagi buyruq xodimga ma’lum qilinib, tilxat olinadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan o’zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi ustuvor yo’nalishlari hamda qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylilikni mustahkamlash vazifalari prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Xususan, 2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 17-maqсад sifatida belgilangan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo’naltirish konsepsiyasining asosida ham prokuratura organlari, ayniqsa, prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish va yosh mutaxassislar bilan ishlashga doir faoliyatni takomillashtirish masalalari dolzarb vazifa sifatida qo’yilib, qonuniylilikni qat’iy ta’minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda “Qonun — ustuvor, jazo – muqarrar” tamoyilini bosh mezonga aylantirish prinsipi ilgari surilgan.

Prokuratura organlari faoliyati hozirgi kunda mamlakatimizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni ta’minlashda ifodalanib, alohida vakolatlarga ega bo’lgan maxsus davlat organi hisoblanadi. Quyi turuvchi

prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va Bosh prokurorga bo'ysunadi, yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga, u tomonidan qabul qilingan protsessual qarorni o'zgartirish va bekor qilishga haqli, shu jumladan, bo'ysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

O'tgan davr mobaynida huquqni qo'llash holatini kompleks tahlil qilish, qonunbuzilishlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini o'z vaqtida bartaraf etish choralarini ko'rish, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash yuzasidan prokuratura organlari xodimlarini zarur bilim va ko'nikmalarga o'rgatish borasida muayyan ta'lim va ilmiy salohiyat shakllantirildi.

Shu bilan birga, prokuratura organlari faoliyatining mutlaqo yangi yo'nalishlari belgilanganligi, ularning amalga oshirilayotgan islohot va o'zgarishlardagi o'rni kuchaytirilganligi yuklatilgan vazifalarni samarali bajara oladigan munosib kadrlar tarkibini shakllantirishni talab etmoqda. Jumladan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, shuningdek, prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning zamonaviy tizimini yaratish maqsadida prokuratura organlarida faoliyat olib borayotgan yosh mutaxassislar bilim va ko'nikmalarni, shu jumladan, tizimli tahlil va tanqidiy fikrlashni, shaxsiy va ishchanlik sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirishni, qonunlarga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishi yuzasidan adolat va mas'uliyat kabi yuksak tuyg'ularini shakllantirish va mustahkamlashni ta'minlovchi yagona mexanizmni tashkil etish ishlari olib borilmoqda.

Prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish va yosh mutaxassislar bilan ishlashga doir faoliyatni takomillashtirish istiqbollarining birinchi qadami sifatida prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish va yosh mutaxassislar bilan ishlashga doir faoliyatining yagona huquqiy asosini shakllantirish masalasini ilgari surish lozim. Jumladan, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunda prokuratura organlaridagi barcha munosabatlar tartibga solinmagan bo'lib, prokuratura organlarida kadrlarni tanlash, tayinlash, xizmatni o'tash tartibi kabi holatlar belgilanmagan bo'lib, bu masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 12-sentyabrdagi PQ-2036-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari va muassasalarida xizmatni o'tash to'g'risida"gi nizom bilan tartibga solinadi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2036-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari va muassasalarida xizmatni o'tash to'g'risida"gi Nizom barcha uchun ochiq bo'lgan normativ-huquqiy hujjat hisoblanmaydi.

Buning natijasida, fuqarolar nazdida prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish, nomzodlarni tanlash va tayinlash jarayonlari ochiq va shaffof emas, prokuratura organlariga faqatgina "tanish-bilishchilik", "qarindosh-urug'chilik va boshqa korrupsiyaviy ko'rinishlar asosidagina ishga kirish mumkin degan noto'g'ri va prokuratura obro'sini tushirishga xizmat qiluvchi fikr shakllanib qolmoqda.

Bizning fikrimizcha, prokuraturaga nisbatan vujudga kelayotgan bu kabi salbiy qarashlarni oldini olish, ehtimoliy korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etish maqsadida prokuratura organlariga birinchi marotaba xizmatga qabul qilish bosqichida o'tkaziladigan test va suhbat jarayonlari video-translyatsiya orqali O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining ijtimoiy tarmoqlardagi saytlarda yoritilib borilishi lozim. Chunki, bu

jarayonni ommaga ochiqlash orqaligina prokuratura organlariga va uning xodimlariga nisbatan bo'layotgan salbiy qarashlarni o'zgartirish hamda ushbu yo'nalishda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy omillarni bartaraf qilish va prokuratura organlarida ochiqlik va sog'lom raqobatni yanada rivojlantirish mumkin. Mazkur vaziyat O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunida o'z aksini topishi va so'nggi natijalar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining ijtimoiy sahifalarida e'lon qilinishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ham korrupsiyani oldini olishda ochiqlik tamoyilidan foydalanish samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi belgilangan. Shu sababli ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida e'lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining yo'lga qo'yilish vazifasi ishlab chiqildi.

Xalqaro standartlar va ushbu farmon asosida prokuratura organlari faoliyatida muntazam e'lon qilib borilishi zarur bo'lgan axborotlarning ro'yxatini "Prokuratura to'g'risida"gi qonunga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish orqali shakllantirish va ularning faol e'lon qilib borilayotganligini nazorat qilish zarur.

Qo'shimcha qilib aytishimiz mumkinki, prokuratura organlaridagi yopiqlikni ko'plab idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning maxfiyligida ham ko'rishimiz mumkin.

Xususan, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar xizmat davomida foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, faqatgina prokuratura organlari xodimlari o'z faoliyatlarini amalga oshirish davomida ulardan foydalanadilar.

Biroq, o'rganish ko'rsatdiki, maxfiyligi ta'minlanishi lozim bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlar ham keng xalq ommasi uchun ochiq emas. Biz bu ilgari surayotgan taklifimiz orqali prokuraturaga taalluqli barcha idoraviy hujjatlar ochiq bo'lishi kerak demoqchi emasmiz, balki maxfiylikni talab qilmaydigan, barcha uchun ochiq bo'lishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risida fikr yuritmoqdamiz. So'rovnoma qatnashgan respondentlarning 77,5 foizi ushbu fikrni tasdiqlab, ayrim normativ-huquqiy hujjatlarning ochiqligi ta'minlashi lozimligini aytib o'tganlar.

Jumladan, ulardan biri O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2018-yil 19-dekabrdagi 208-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlarining Kasb odobnomasidir. Mazkur Kasb odobnomasida prokuratura organlari xodimlarining xizmat davomida va xizmatdan tashqari vaqtda rioya qilishlari lozim bo'lgan qoidalar mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, uni buzgan xodimlar javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Birinchidan, Kasb odobnomasining barcha uchun ochiq bo'lishi prokuratura organlari xodimlarining ogohligini, ularning mas'uliyatini oshirib, jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Ya'ni, Kasb odobnomasi bilan tanishib chiqqan har bir fuqaro, prokuratura organi xodimi uchun aslida qanday xatti-harakatlar mumkin va nimalar ta'qiqlanganligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar va ulardan ana shu qoidalarga amal qilgan holda faoliyat yuritishlarini talab qiladilar. Shu kabi normativ-huquqiy hujjat bilan tanishib chiqqan har bir fuqaro bu kabi davlat organlarining asosiy vazifasi xalqqa xizmat qilish va ularning buzilgan huquqlarini tiklashda yordam berish ekanligini bilib oladilar.

Ikkinchidan, prokuratura organlarida ochiqlikning ta'minlanishi xodimlarning o'zboshimchalik bilan harakat qilishlarini cheklab, xodimlar tomonidan har qanday

jarayondagi xatti-harakatlarni amalga oshirishda tartib, adolat va qonuniylikning ustun bo'lishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatidagi muammolarni normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va ularning ijrosini doimiy ravishda ta'minlash orqali hal qilish hamda uning faoliyatini jamiyatimiz ehtiyojlariga moslab takomillashtirish va ochiqlikni yetarli darajada ta'minlash orqali prokuratura organlariga xizmatga qabul qilish jarayonlaridagi korrupsion xatti-harakatlarni oldini olish mumkin bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirda barcha mamlakatlarda prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish jarayonlari faol kechmoqda. Mamlakatimiz prokuraturasi faoliyatini takomillashtirishda, birinchidan, prokuratura boshqaruvida kollegial organni tashkil etish va uning mustaqilligini ta'minlash prokuratura organlariga Hukumatning ta'sirini kamaytirishga yordam beradi. Ikkinchidan, prokuratura organlaridagi lavozimlarga xodimlarni qabul qilish jarayonini ochiqlash, prokuror, tergovchi lavozimiga o'z nomzodini ilgari surgan xodimlarga qo'yilgan talablar ro'yxatini "Prokuratura to'g'risida"gi qonunda aniq belgilash, uchinchidan, prokuratura organlari xodimlarining oylik maoshlarini oshirish hamda xizmat qilayotgan hududlaridagi sharoit, narxlarni o'sish darajasi kabi omillarni hisobga olgan holda belgilash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sh.M. Mirziyoyev - Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi, T.: "O'zbekiston", 2016-y., 4-bet.
2. Sh.M. Mirziyoyev - Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston", NMIU, 2019., 47-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Prezident lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yilgi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
6. O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6041-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-257-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
9. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 12-sentyabrdagi PF-2036-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari va muassasalarida xizmatni o'tash to'g'risida"gi Nizom // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PF-5438-sonli "Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
12. 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
13. The law of Spain "On Organic Statute of the Public Prosecution Office".

14. Qirg'iziston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni, 24.08.2020-yil.
15. Закон Азербайджанской Республики "О прокуратуре".
16. M.Rustamboyev, Yu. Nikofova. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar (darslik). T.; 2005.
17. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. –Toshkent: "O'zbekiston", 2005.
18. Маликова Гульчехра Рихсходжаевна ГЕНЕЗИС ПРОКУРАТУРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: "ВОСТОК -ДЕЛО ТОНКОЕ" // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. 2020. No4 ст.85
19. O.M.Madaliyev. Prokuror nazorati. Darslik. Umumiy qism. –T.:TDYI nashriyoti, 2009. 76 b.
20. Muhammed Ali "Eradicating corruption - in Singapore experience" Presentation Paper for The Seminar on International Experiences on Good Governance and Fighting Corruption; February 17, 2000.
21. Коленко Е. Институциональные механизмы коррупции в Республике Узбекистан // Материалы международно-практического семинара по теме. "Проблемы коррупции с коррупцией: национальный и международный опыт". - Ташкент: Чашма Принт, стр. 110-118.
22. Z.Ibragimov. "Prokuratura organlari huquqiy maqomining takomillashuvi". Monografiya. –T., 2008.
23. Гранат Н.Л. Следственные ошибки: понятие, виды, причины // Научная информация по вопросам борьбы с преступностью. 1983.
24. Maxbubov M. O'zbekistonda prokuratura organlarini tashkil etilishi va rivojlanishi. Yur. fanlar doktorligi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati; Toshkent. 1993 y.
25. Gordon, Sanford C. 2009. "Assessing Partisan Bias in Federal Public Corruption Prosecutions." American Political Science Review 103 (4): 534-b.
26. <https://lex.uz/>.
27. <https://prokuratura.uz/>.
28. <https://www.norma.uz/>.
29. <https://www.transparency.org/en/>.
30. <https://www.iap-a.s.sociation.org/>
31. <https://www.salaryexpert.com/salary/job/prosecutor/china#>
32. <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/>
33. <https://worldjusticeproject.org/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).